




13- laboratoriya ishi

Ruxning suvda eriydigan tuzlaridan rux gidroksid olish va uni amfoter xossasini isbotlash

1. Rux sulfat tuzining 20 % li eritmasidan 5 ml oling va unga natriy gidroksidning 10 % li eritmasidan 5 ml quyding. Hosil bo'lgan cho'kmani 2 ta probirkaga bo'lib oling.
2. Probirkalarning biriga sulfat kislota eritmasidan, ikkinchisiga esa natriy gidroksid eritmasidan quyding.



Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Rux sulfat tuzi eritmasiga natriy gidroksid quyilganda sodir bo'ladigan kimyoviy hodisani izohlang va sodir bo'lgan kimyoviy reaksiya tenglamasini yozing.
2. Qanday moddalar amfoter moddalar deb ataladi? Rux gidroksidni amfoter modda ekanligini qanday isbotlash mumkin?
3. Yuqorida bajarilgan tajribalarni tushuntiring.
4. Rux sulfat eritmasiga o'yuvchi natriy eritmasidan ortiqcha miqdor qo'shilganda cho'kma hosil bo'ladimi? Nima uchun? Javobingizni izohlang.